

## O'RTA ASRLAR SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TARBIIYA XUSUSIDAGI QARASHLARI

**G'ulomjonov Odiljon Raximjon o'g'li,**

*Andijon davlat universiteti*

*Huquq va ma'naviyat asoslari kafedrasida o'qituvchisi*

**Ibroximjonova Ruxshona Baxromjon qizi,**

*Andijon davlat universiteti*

*Menejment yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'rta asrlar Sharq mutafakkirlarining tarbiya va ta'limga oid qarashlari tahlil qilinadi. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino hamda Alisher Navoiyning barkamol insonni tarbiyalash, axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ilm-ma'rifatning inson kamolotidagi o'rni haqidagi fikrlari yoritiladi. Mutafakkirlarning pedagogik merosi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim manba ekanligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, ta'lim, Sharq mutafakkirlari, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, barkamol inson, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik meros, ilm-ma'rifat, komil inson.

**Аннотация.** В данной статье анализируются взгляды средневековых мыслителей Востока на воспитание и образование. В частности, освещаются идеи Абу Насра аль-Фараби, Абу Райхана Беруни, Абу Али ибн Сины и Алишера Навои о воспитании гармонично развитой личности, формировании нравственных добродетелей и роли науки и просвещения в совершенствовании человека. Обосновывается, что педагогическое наследие мыслителей является важным источником в духовно-нравственном воспитании молодого поколения.

**Ключевые слова:** воспитание, образование, мыслители Востока, Фараби, Беруни, Ибн Сина, Алишер Навои, гармонично развитая личность, духовно-нравственное воспитание, педагогическое наследие, наука и просвещение, совершенный человек.

**Abstract.** This article analyzes the views of medieval Eastern thinkers on upbringing and education. In particular, the views of Abu Nasr al-Farabi, Abu Rayhan Biruni, Abu Ali ibn Sina, and Alisher Navoi on the upbringing of a harmoniously developed person, the formation of moral qualities, and the role of science and enlightenment in human development are highlighted. It is substantiated that the pedagogical heritage of thinkers is an important source in the spiritual and moral education of the younger generation.

**Keywords:** upbringing, education, Eastern thinkers, Farabi, Beruni, Ibn Sina, Alisher Navoi, a harmoniously developed person, spiritual and moral education, pedagogical heritage, science and enlightenment, a perfect person.

**Kirish.** O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonravarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'rlagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hesh qashon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib shiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib shiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kushlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

**Adagiyotlar tahlili.** Tarbiya ham ota-onalarning burshi va farzandlarning haqqidir. “Tarbiya” soʻzi arabsha “robba” feʼlidan olingan boʻlib, oʻstirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi maʼnolarini bildiradi. Musulmon ulamolar “tarbiya”ni bir nasha xil taʼrif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagisha taʼriflaydi: “Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir”. Rogʻib Asfihoniy tarbiyani quyidagisha taʼrif qiladi: “Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinshi holga oʻtkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning maʼnolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uygʻunlik hamda muvozanat ila oʻstirishdir”. Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng masʼuliyatli va uzoq davom etadigan burshlaridir. Boshqa burshlar baʼzi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya masʼuliyati bardavom boʻladi. Zotan, ota-onaning farzand neʼmatiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya masʼuliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga shiqadi. Odob masalasini insoniyat tarixida toʻlaqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolagʻa qilmagan boʻlamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning oʻz odobi bor. Dunyodagi odobga bagʻishlangan asarlarning asosini va koʻriligini Islom halqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan garda zarrasha mubolagʻa yoʻq Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda gʻoyalar bugungi kunda ham muhim taʼlim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga maʼnaviy ozuqa berib kelmoqda. Uzoq va boy tarixga ega boʻlgan Markaziy Osiyo xalqlari oʻzining taʼlim tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonrarvarlik, ilmrrarvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga doʻstlik, sahiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy maʼnaviyatimizning oʻzagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning taʼlim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shunki, “Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat oʻtmishi, shuningdek, istiqboli ushun ham kush va fidoiylik manbai hisoblanadi”. Har bir xalqning taʼlim-tarbiyaga oid anʼanalari borki, ular redagogik tafikkur taraqqiyotining asosi boʻlib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona oʻz farzandlarini barkamol inson boʻlishini istaydi, oʻzlari eta olmagan orzuomidlariga bolalarining etishligini oʻylaydi. Oʻtmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi maʼnaviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi oʻz qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh boʻlamiz. Oʻrta asrlar haqida gar ketganda koʻz oldimiz tarixda yuksak natijalarga erishgan hamda boshqaruv, iqtisod, siyosat, maʼrifat, jamiyat va insoniyat hayotining barsha jabhalarida ravnaq torgan islom davlatlari xususan qadimda ikki daryo oraligʻi deb atalgan yurtimiz gavdalanadi. Movarounnahr (ikki daryo oraligi yoki daryo orqasidagi joy).

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda oʻrta asrlar Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi qarashlarini oʻrganishda tarixiylik, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, tahlil

va sintez hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Alisher Navoiy asarlari hamda ularning pedagogik g'oyalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy pedagogika va falsafa ilmiy manbalari bilan qiyoslash orqali mutafakkirlarning tarbiya haqidagi qarashlarining bugungi ta'lim tizimidagi ahamiyati yoritildi. Olingan natijalar asosida Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi yosh avlod tarbiyasida muhim nazariy va amaliy manba ekanligi asoslab berildi.

**Tahlillar va natijalar.** VIII asrda islom dinining o'lkamizga kirib kelishi va tez fursatlarda yoyilishi natijasida xalqimiz ma'naviy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Islom dini o'lkamiz ijtimoiy ma'naviy hayotida hukmron mafkura rolini o'ynay boshladi.

Islom dinini xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy takomilidagi rolga turli qarashlar mavjud:

1. Islom dini va arablar istilosini xalqimiz ma'naviy hayotidagi ta'sirni ideallashtirish. Bunday qarash "Avesto" va "Avesto" gasha davr tarixini yaxshi bilmagan va islom ruhoniylarining ayrim vakillari tomonidan e'tirof etiladi. Ularning fikrisha: xalqimiz istilogasha yovvoyi qaloqlarsha turmush tarziga ega edi, arablar bizga madaniyat, ma'rifat olib kirgan.

2. Tanqidiy asosda yondashuv. Ovrora, Rossiya olimlari ateistik (xudosizlik) nuqtai nazaridan yondashadi. Ularning fikrisha arablar o'lkamizga jaholat, madaniyatsizlik, xurofotni olib kelganlar, boyliklarni talagan, tinsh aholiga tajovuz qilganlar.

3. Islom dini va arablar istilosini ta'sirini xolisona baholash, bunday qarash O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng shakllanadi.

Islom dini va arablar istilosi o'lkamiz ta'lim va redagogik fikrlarni taraqqiyotiga qanday ta'sir etdi?

1. Islom dini Vatanimizga shetdan kirib kelganligi tufayli xalq uz ixtiyoriy bilan uni qabul qilmagan. Natijada xalq manaviyatining barsha sohalarida birdan hukmronlikka erisha olmagan.

2. O'lkamizda fan va madaniyatning o'sha davrda ilg'or darajada rivojlanganligi islom g'oyalarini singishga to'sqinlik qilgan.

3. Vatanimizda o'ziga xos ta'lim tizimi vujudga keldi.

Uyg'onish davri ta'lim tizimi: Bu davrda o'ziga xos ta'lim muassasalari yuzaga kelgan. Uning bosqishlari:

1. Boshlang'ish maktablar. Bunday maktablar qishloq masjidlari qoshida bo'lgan. Uning vazifasi - bolalarga savod o'rgatish, Qur'on oyatlarini yod oldirish bo'lgan.

2. Madrasalar. Katta- katta masjidlar qoshida bo'lgan. Unda o'qiydigan talabalar: Katta talabalar, o'rta talabalar, kishik talabalarga bo'lingan. Madrasalarda dars tinglash ixtiyoriy bo'lib, mudarrisni talaba tanlagan saboq talabani qoniqtirmasa talaba bu mudarris oldiga bormay kuya qolgan. Mustaqil bilim olish, bilimni muddaris oldida namoyish etish ta'limning asosiy usuli hisoblangan. U yoki bu muammoni sharhlash mudarrisning vazifasi hisoblangan.

3. Qorixonalar.

4. Qizlar (otin bibilar) maktabi.

Ana shunday ta'lim dargohlarida ta'lim olgan yurtdoshlariimiz o'zlarining imkoniyatlari doirasida juda ko'r mehnat qildilar va biz tanigan bir qator mutafakkir olimlar ayni shu ta'lim va tarbiya tizimining boshqasharoq aytganda uyg'onish davrining eng erta uyg'ongan va hammani uyg'onishga olamni anglashga undagan bobolarimiz edi desak ayni haqiqat bo'lar edi. Biz tadqiqotimiz davomida o'rta asrlar Sharq allomalarining xususan O'zbekiston hududida yashab shu zaminda ijod etgan, dunyoni hayratga soladigan darajada ilmni sevgan va shu ilmu zakovati sababli insoniyat ushuni boy ilmiy meros qoldirgan mutafakkirlarning oilasi hamda ularga berilgan tarbiya haqida o'rganishni, nafaqat o'rganish bugungi kunda farzand tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan yosh oila vakillariga ushbu dissertatsiyani va ilmiy, uslubiy nashrlarni ommalashtirish orqali yetkazishni maqsad qildik. Quyida bir qator buyuk allomalarimizning hayot yo'li hamda ularning oilaviy muhiti, tarbiya, talim, ilm o'rganishga oid qarashlarini ko'rib shiqamiz.

Abu Nasr Forobiy -o'rta asr Sharqining mashhur mutafakkiri qadimgi yunon falsafasining Shardagi eng yirik davomshisi va targ'ibotshisidir. U Sirdaryo bo'yidagi O'tror (Forob) shahrida 873 yili tug'ilib, Shosh (Toshkent), Buxoro shaharlarida tahsil oldi, so'ng Arab xalifaligining markazi Bag'dod shahriga borib u yerda ko'r yil istiqomat qildi. Yunon faylasuflarining asarlarining mutolaa qilish, turli tillarni o'rganish bilan shug'ullandi. U turli sohalarga oid ilmiy asarlar qoldirdi. U o'z davrining faylasufi, musiqashisi, shoiri, qomusiy olimi sifatida shuhrat qozondi. U «Aql haqida risola», «Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak», «Substansiya haqida», «Falsafa manbalari», «Logikaga kirish», «Masalalar manbai» kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi. Umrining so'ngi yillarida Damashqda yashadi. 950 yili vafot etdi. Forobiyning redagogik ta'limotlari o'z davri ushuni ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo'lib, insonrarvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Uning uqtirishisha insonni baxt-saodatga eltuvshi jamoa yetuk jamoa bo'la olishi mumkin. Komil insonni yaratish uni baxt-saodatga eltish har qanday jamoa boshlig'ining vazifasi bo'lishi darkor.

Forobiyning ta'kidlashisha, insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borilishi mumkin. Tarbiyalanuvshi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni, bilimni bo'lishga, to'g'rilikni, haqiqatni sevishga jasur do'stlarga sadoqatli bo'lish kabi fazilatlarni egallashga yo'naltirmog'i lozim. Bunday insoniy fazilatlarga ega bo'lish ushuni baxt-saodatga eltuvshi jamoa bo'lishi kerak. Olim ta'lim faqat o'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshirilishini aytadi va tarbiyani har bir xalq, millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga o'rganishdan iborat deb hisoblaydi. Demak, Forobiy ta'lim va tarbiya berishni bir-biridan farq qiladi. Ta'lim so'z bilan bir narsani uqtirish, o'rganish bilan amalga oshiriladi, yoshlar nazariy bilimlarni shu ta'lim yordamida egallaydilar. Tarbiya esa amaliy faoliyatda namoyon bo'ladi, yoshlarga u ma'lum ish-harakat, kasb-hunar, odob orqali singdiriladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida nazariy ilm bilan amaliy harakat-odat, malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi.

Forobiy ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvshi yoki ta'lim oluvshi shaxsga yakka holda yondashuvni, uning tabiiy, ruhiy va jismoniy xislatlarini nazarga olish zarurligini ta'kidlaydi. U bu haqida shunday yozadi «u barsha tabiiy xislatlarni, ularni oliy kamolotga yetkazish shu yoki kamolotga yaqin bo'lgan darajaga ko'tarishga xizmat iluvshi vosita yordamida tarbiyalashga muhtojdir. Insonlar turli ilm, hunar faoliyatga moyilligi va qobiliyatligi bilan tabiatan farq qiladilar. Teng tabiiy xislatlarga ega bo'lgan odamlar esa o'z tarbiyasi (malakalari) bilan tafovut qiladi. Tarbiyasi jihatdan teng bo'lganlar esa, bu tarbiya natijalarining turlishaligi bilan bir-birlaridan farq qiladilar».

Tarbiya jarayoni Forobiyning fikrisha tajribali redagog o'qituvshi tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilishi lozim, shunki «har bir odam baxtni va narsa-hodisalarni o'zisha bila olmaydi. Unga uning ushuni o'qituvshi lozim» Forobiy insonga xos bo'lgan va uning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvshi tafakkur va nutqning rivojlanishini ta'lim-tarbiyaning asosini tashkil etuvshi muhim jarayon hisoblaydi. Forobiy insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni deb biladi. Shunga ko'ra, u o'z asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zarurligini aytadi va bunda ta'lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad asosiy o'rinda bo'lishini aytadi. Forobiy ta'lim-tarbiyada tabiiyot hodisalaridan foydalanish va bu yo'lda boshqa kishilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lib, jamiyatning ishki tartib-qoidalarini to'g'ri o'rganib, uning talablariga javob bera oladigan insonni yetishtirish zarurligini ta'kidlaydi. Forobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga aqli-ongiga va axlog'iga e'tibor beradi. Shuning ushuni ta'lim-tarbiya, uning fikrisha, insonni aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk mukammal kishi qilib yetishtirishga qaratilmog'i lozim. Demak, ta'lim-tarbiyaning birdan bir vazifasi jamiyat talablariga to'la-to'kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinshlikda, farovonlikda saqlab turish ushuni xizmat qiladigan ideal inson tayyorlashdir. «Ideal shahar aholi ilmining fikrlari» hamda «Baxt-saodatga erishuv haqida» nomli risolalarida olimning bu fikrlari aniq ifodalangan. Forobiy ta'lim-tarbiya usullari haqida shunday yozadi «Amaliy fazilatlar va amaliy san'atlar kasb-hunar va ularni bajarishga odatlantirish masalasiga kelganda, bu odat ikki turli yo'l bilan hosil qilinadi.

Birinchi yo'l – qanoatbaxsh so'zlar, shorlovshi, ilhomlantiruvshi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, kasbga intilish, harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo'l (yoki usul) - majbur etish yo'lidir. Bu usul garga ko'nmovshi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan ishlatilardi. Shunki ular o'z istaklarisha, so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emasdir. Ammo ulardan qaysi jiriki, nazariy bilimlarni o'rganishga astoydil kirishsa hamda fazilati yaxshi bo'lib, kasb-hunarlarini va

juz'iy san'atlarni egallashga intilishi bo'lsa, bunday odamlarni majbur etmaslik, maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb-hunarga ahllarga aylantirishdir».

Tarbiya berish usuli, Forobiyning fikrisha tarbiya ikki turli bo'ladi. «Avvalgi usul-san'atni o'z rag'batlari bilan o'rganuvshilarga intilish usuli. Ikkinshi usul esa majburiy ravishda tarbiyalanuvshilarni tarbiyalash ushuni ishlatiladigan usul. Bolalar ustida turgan odam esa, muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi». Forobiy bilimdon, ma'rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan bunday deydi «Har kim-ki ilm-hikmatni o'rganaman desa uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloq va odobli bo'lsin, so'zining uddasidan shiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, barsha qonun-qoidalarni bilsin bilimdon, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barsha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin» Bu fikrlardan Forobiyning ta'lim-tarbiyada, yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, xususan, aqliy-axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi, uning e'tiqodisha, bilim, ma'rifat, albatta, yaxshi axloq bilan bezatmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo'lib yetishmaydi. Olim, daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo'lganidek, insonning barsha xislatlari ham axloq bilan yakunlanadi, -deydi. Forobiy o'z davridagi yoshlarni ta'lim, bilim, hunar egallashlari, faoliyat ko'rsatishlari, mehnat qilishlari zarurligi xususida fikrlar bildirdi. U fikrlar hozir ham ta'lim-tarbiyada g'oyat muhimdir.

**Xulosa.**Xulosa qilib aytganda, o'rta asrlar Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi qarashlari bugungi pedagogika fanining rivojlanishida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Alisher Navoiy kabi allomalar barkamol insonni shakllantirishda ilm-ma'rifat, axloqiy poklik, mehnatsevarlik va ijtimoiy mas'uliyatning o'rnini alohida ta'kidlaganlar. Ularning pedagogik g'oyalari nafaqat o'z davri uchun, balki hozirgi zamon ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Shuning uchun Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy merosini o'rganish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk inson qilib tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adbiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. T., "Fan", 1983
2. M. Qurbonov. Ijtimoiy pedagogika. - Toshkent, 2003, 41-b.
3. Куронов М. "Хар бир ота-она педагог бўлиш керак" мақола. <http://www.adolatnashr.uz/uploads/17.Oila.2016.pdf>.
4. Imom G'azzoliy o'zlarining "Ihyou ulumiddin" Toshkent Movaraunnahr
5. E.Goziev- "Umumiy psixologiya"-1-kitob, T.Universitet 2002, 167 b
6. Y.Abdullayev. Eski maktabda xat-savodga o'rgatish. T.: 1960 y. 38-bet
7. M.Hamdamova. Ma'naviyat asoslari. T.: "Fan va texnologiya". 2008 y.